

YANGI O‘ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ziyadullayev G‘ayrat Umidulla o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

“Iqtisodiyot va servis” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

xitoyabdulla@mail.ru

+99891 6624003

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari, huquqiy va moliyaviy muhitdagi o‘zgarishlar va ular kichik biznesning o‘shiga qanday ta‘sir qilayotgani o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. kichik tadbirkorlik, Yangi O‘zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, biznes muhiti, davlat qo‘llab-quvvatlashi, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, huquqiy islohotlar, moliyaviy yordam, iqtisodiy tendensiyalar, o‘sh istiqbollari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.

KIRISH

Jahon amaliy tajribasining ko‘rsatishicha, kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag‘ sarfini kam talab qilishi, ihchamligi, shartsharoitdan kelib chiqqan holda o‘zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turlarini tez o‘zgartira olishi, ishlab chiqarish quvvatlarini jadal modernizatsiya qilish imkoniyatiga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik tadbirkorlik bozor konyukturasining o‘zgaruvchan talablariga xamda vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tezroq moslasha oladi.

Yurtimizda tadbirkorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti? Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko‘p. Ochig‘ini aytganda, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o‘zimiz – davlat idoralari yo‘l qo‘ymayapmiz. Hech kimga kerak bo‘lmagan tartib-taomillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko‘pgina amaldorlar faqat o‘z shaxsiy manfaatini o‘ylab ish ko‘rmoqda” [1] ushbu fikrlaridan tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlar iqtisodiyot uchun nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hamda uning boshqaruv faoliyati mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bugungi kun uchun dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aynan kichik biznes va tadbirkorlik o‘zining harakatchanligi, kam kapital mablag‘larini jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab raqobatdosh mahsulotlarni iste‘molchilarga taqdim etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tobora rivojlanishi ular faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bog‘liqdir. Mamlakatimizda ushbu sohada zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llash hamda rivojlangan xorij tajribasini chuqur o‘rganishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so‘ng, iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va uning rivojlanishini rag‘batlantirish, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik tadbirkorlik, nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratish, balki milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishda ham katta rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan turli islohotlar, soliq imtiyozlari, innovatsion texnologiyalar va moliyaviy yordamlar orqali ushbu soha tez sur‘atlar bilan o‘smoqda. Shu bilan birga, yangi iqtisodiy sharoitlar, global raqobat, hamda raqamli texnologiyalar kichik biznesning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Maqolada Yangi O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiy o‘shishga qo‘shgan hissasi va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yangi imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar, ularning hal etilishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar va davrga mos innovatsiyalar ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari oshirish usullarini o‘rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya, asosan, **sistemali yondashuv**, **statistik tahlil** qiyosiy tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yangi O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga doir tadqiqotlar ko‘p yillik ilmiy ishlarning va amaliy tajribalarining natijasi sifatida o‘rganilmoqda. Adabiyotlar sharhida, kichik tadbirkorlik va uning rivojlanishi, shuningdek, bu jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha mavjud ilmiy yondashuvlar va tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi.

A.Xoskinning fikricha, “Qarorni mustaqil qabul kilib, ishni o‘z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug‘ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta‘minlanishi uchun shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo‘ladi”⁹⁹. Ushbu ta‘rifda tadbirkor biznesda qarorlarni shaxsan qabul qilishi asosida boshqaruvni tashkil etishiga alohida urg‘u berilgan.

V.I.Vidyapin rahbarligida G.V.Plehanov nomidagi Rossiya iqtisodiy akademiyasi olimlari tomonidan nashr etilgan “Obshaya ekonomicheskaya teoriya” darsligida “Tadbirkorlik faoliyati – bu o‘zining moddiy mafaatlarini amalga oshirish pirovard maqsadida ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi moddiy ne‘matlar va xizmatlarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillarini (resurslarni) tashkil etish va birlashtirishdir”¹⁰⁰ deb baho beriladi.

⁹⁹ Хоскин А. Курс предпринимательства.- М.:1993. – С. 23.

¹⁰⁰ Общая экономическая теория. Учебник. РЭА.им.Г.В.Плеханова,–М.:«ПРОМО-МЕДИА, 1995.-С.165.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlikning mohiyatini nazariy tadqiq etish va O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari Respublikamiz olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan va rivojlantirilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.O‘lmasov va M.SH.Sharifxo‘jayevlar “Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi”¹⁰¹ deb ta’kidlaganlar. Iqtisodchi olim M.R.Rasulov “Tadbirkor o‘z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etadi, tijorat bilan shug‘ullanadi, boylikka boylik qo‘shadi, mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi. Agar tijorat ijara va qarz asosida olib borilsa ham, baribir, mahsulot, tovar uning mulkidir”¹⁰² degan fikrni bildiradi.

Qator olimlar “Tadbirkorlik” va “Biznes” tushunchalari bir-biridan farq qiladi, biznesning eng asosiy unsuri tadbirkorlikdir, tadbirkorlik biznesi – bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali daromad topishni ko‘zlovchi faoliyatdir, deb ham izohlaydilar. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda Q.Muftaydinov tomonidan berilgan ta’rif o‘ziga xosligi va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Uning fikricha, “Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida iqtisodiy maxovik bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste‘mol talablarini e’tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning tahlil qismi, Yangi O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish natijalariga asoslanadi. Tadqiqotda kichik biznesning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, shuningdek, bu sohadagi istiqbollor va mavjud muammolar chuqur tahlil qilindi.

Mamlakatimizda aholining bandligi va daromadlarining barqaror o‘shishini ta’minlashga doir vazifalarini hal etishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llabquvvatlashga yanada ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan “2017– 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI”da “xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish” muhim vazifa sifatida belgilab berilishi ham mazkur masalaning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi”¹⁰³.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashning quyidagi sabablarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- kichik biznes ichki bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilishi;

¹⁰¹ O‘lmasov A., Sharifxujayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Mehnat”, 1995.-B.192.

¹⁰² Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari.- T.:”O‘zbekiston”, 1999. - B.224.

¹⁰³ <https://evu.uz/uz/arhiv-statey/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlik-rivojlanish-omili.html>

- kichik biznes jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va konyunktura o'zgarishlariga ancha tez moslashishi;

- kichik biznesni tashkil qilish va yuritish katta xarajat hamda kapital qo'yilmalarni talab etmasligi;

- kichik korxonalariga nisbatan kichik biznesning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va salbiy oqibatlariga bardosh bera olish qobiliyatining ancha yuqoriligi;

- kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi ekanligi farkimizning yaqqol dalilidir.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda, balki aholi bandligi va farovonligini ta'minlashdagi ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda, bu sohani qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari joriy qilinmoqda. Xususan, ularni qo'llab-quvvatlashda amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, bank kreditlarining maqbul foizlarda berilishi va soliq sohasidagi imtiyozlarning yanada kengaytirilishi kabi chora-tadbirlar ular faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalariga keng e'tibor berilmoqda, jumladan:

1. Soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tegishli choralar ko'rish;

2. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida korxonalarining budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditor qarzdorligini qayta ko'rib chiqish;

3. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Raqobatlashuvchi turlarning uzviy bir butunligi ularning davlat zo'rvonligi bilan yaratiladigan tartibsiz konglomeratidan farq qiladi, chunki bu manfaatlarining uyg'unligiga asoslanadi... ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi mulkchilik shaklining almashinishi bilangina chegaralanib qolmaydi, chunki ko'p ukladlilikning shakllanishi raqobat muhitini yaratish, narxlarni erkinlashtirish, monopoliyalarni tartibga solish va nihoyat, davlattomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni bildiradi.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning uchta muhim yo'nalishini alohida ta'kidlash o'rinlidir, bular:

1) tovar va xizmatlar bozorida talab va taklifni muvozanatini kuzatish va zarur holda unga aralashish;

2) korxonaning ichki muhitini tartibga soladigan fiskal va kredit siyosatni amalga oshirish;

3) mavjud davlat institutsional tizimning o'z-o'zini tartibga solish mexanizmini yaratish.

Bozor sharoitida milliy iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish va korxonalarining barqaror holatini yaxshilashda qo'llabquvvatlashning barcha mexanizmlari ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat bunday vazifalarni xukukiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmini qo'llash orqali amalga oshiradi.

Mexanizm jarayonlarga ta'sir ko'rsatish usullari va vositalar yig'insidan iborat bo'lgani holda, ularni quyidagi tarkibda keltirish mumkin:

Iqtisodiy vositalar: soliqqa tortish, subsidiyalar berish, letsenziyalar berish, eksport kvotalari belgilash, kredit ajratish, davlat xaridlarini joriy etish va hokozalar. Huquqiy vositalar: iqtisodiy faoliyat olib borish tartibi va qoidalarini ishlab chiqish, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishni asoslab beruvchi qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilingan qonunlarga mos keladigan qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish, qabul qilish va joriy etish va hokozalar. Tashkiliy vositalar: tijorat banklari, fondlar, sug'urtalash, lizing xizmati ko'rsatish, texnoparklar, konsalting va auditorlik xizmati, biznes inkubatorlar va hokozalar.

- ijtimoiy vositalar: davlat o'z mablag'lari hisobidan kichik tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlovchi o'quv yurtlari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi;

- ommaviy farovonlikni ta'minlashda o'ziga xos muvozanatni saqlash dasturlari ishlab chiqadi;

- o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirishda insonparvarlik tamoyillari amal qilishi uchun moddiy zamin hozirlaydi;

- iste'molchilarning xarid qobiliyatini oshirishni rag'batlantirish orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni muntazam amalga oshirishini ta'minlashda ijtimoiy ko'mak beradi va hokoza.

Har bir davr va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya o'z xo'jalik mexanizmiga ega bo'lib, ishlab chiqarish bir usuldan boshqasiga o'tganda xo'jalik mexanizmi ham o'zgaradi va xo'jalik jarayonlariga ta'sir etuvchi vositalar ta'siri ham o'zgaradi. Buni bozor mexanizmiga quyidagicha berilgan ta'rifda ham ko'rishimiz mumkin:

"Bozor mexanizmi-bu bozor tizimiga xos bo'lgan, bir-birini taqoza etuvchi va birgalikda amal qiluvchi iqtisodiy vositalardir". Bular, talab, taklif, tovar narxlari bozor konyunkturasi, pul, foyda, zarar, foiz, iqtisodiy majburiyat, raqobat kabilar.

Bozor mexanizmi va iqtisodiy mexanizm mushtarakligi tadbirkorlik faoliyatining xo'jalik yuritish asoslarida yuzaga keladi. "Xo'jalik mexanizmi keng ishlatilishiga qaramasdan hozircha, iqtisodiy fanda zarur bo'lgan huquqni va o'rinni egallamagan murakkab, ko'p qirrali tushuncha". Fikrimizcha, iqtisodiy mexanizm bozor mexanizmini to'ldirish va uning samaradorligini oshirish bilan ahamiyatlidir. Iqtisodiy mexanizm tarkibiga soliq, davlat xaridlari, boj tarifi, lizenziya, subsidiya, kredit va baho mexanizmi nazorati kabilarni qo'shish mumkin. Bundan ko'rinadiki, iqtisodiy mexanizm va bozor mexanizmi bir-biriga bog'liq holda va bir birini to'ldirgan holda amal qiladi.

Shu maqsadda har mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat tomonidan o‘ziga xos iqtisodiy usullarda qo‘llab-quvvatlanadi va rag‘batlantirib boriladi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmidan samarali foydalanish, iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi va iqtisodiyot harakatiga ichki kuch sifatida ta’sir etadi, uning tarkibiy qismiga aylanib ketadi. Bunday mexanizmning eng muhimlari soliqlar tizimi, subsidiya, boj haqi, litsenziya, davlat xaridlari va kredit, eksport hisoblanadi. Quyida tadqiqotdan olingan asosiy natijalar keltirilgan.

1.1-jadval.

Kichik biznesning 2005-2024 yillarda rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari¹⁰⁴

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2005	2010	2017	2024
1.	YAIMda kichik biznesning ulushi	%	38,2	60,8	65,3	51,8
2.	Shu bilan birga kichik korxonalar va mikrofirmalar	%	21,5	32,7	36,3	36,7
3.	Umumiy bandlikdagi ulushi	%	65,5	74,3	78,3	74,4

Ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi kichik biznes sektorining mustahkam asosda iqtisodiy taraqqiy etishi va barqaror sur‘atlarda o‘shishiga zamin yaratib berdi. 2005–2024 yillar davomida YAIMda kichik biznesning ulushi 38,2% dan 51,8% ga o‘tdi. 2024-yilda ushbu sektorda band bo‘lganlar Respublika iqtisodiy faol aholisining 74,4 foizini tashkil qildi (1.1-jadval). Taqqoslaydigan bo‘lsak, umumiy bandlikda kichik biznesning ulushi AQShda 54%, Buyuk Britaniyada 56%, Germaniyada 69,5%, Italiyada esa 71% ni tashkil qiladi.

Kichik biznes sohasida bandlikning ortishi kam ta’minlagan aholi darajasini qisqartirishda muhim omil sanaladi. Yangidan tashkil etilayotgan kichik biznes subyektlarining barqaror o‘shishi, qulay biznes – muhitning barpo etilishi, yagona soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq stavkalarining pasaytirilishi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va resurslarga yetishish shartlarining soddalashtirilishi va shuningdek, yirik kompaniyalar bilan kichik biznes subyektlari o‘rtasida kooperatsion aloqalarning rivojlanishi evaziga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2005-yildagi 9,8%dan 2024-yilda 27,5% gacha o‘tdi. Kichik biznes sektorining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi ko‘p jihatdan tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berdi.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat turmush farovonligini barqaror rivojlantirishning asosiy unsuri sifatida baholanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishining jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi, balki mamlakatlarda amalga oshirilayotgan siyosiy dasturlarda ham o‘z aksini topmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirish jamiyat tarkibida o‘rta qatlamning ulushini ortishi, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Mamlakatimizda 2013-2022 yillar davomidagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda kichik tadbirkorlik ulushining o‘zgarishi ma’lum bir tebranishlarga

¹⁰⁴ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining mazkur yillar bo‘yicha ma’lumotlari

ega bo‘lib, ushbu tebranishlarni mamlakat darajasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni va mohiyati bilan izohlash mumkin.

XULOSALAR

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy subyektlarning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida tabiiy iqtisodiy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarkibiy o‘zgarishlarni davom ettirish, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini huquqiy tartibga solish va faollashtirish tizimini takomillashtirish hisobiga institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, shuningdek, hududlar aholisi bandligi darajasini va daromadlarini oshirish bo‘yicha vazifalarni izchil amalga oshirish talab etiladi. tizimlarini joriy etish uchun kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga, resurslarni tejashga, ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarga muhtoj.

Bunda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratilishi lozim:

- tadbirkorlik subyektlarini tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qitish;
- zamonaviy marketing va menejment texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- eksportga ko‘maklashuvchi turli tashkiliy tuzilma va infratuzilmani jadal rivojlantirish;
- amaliyotga xalqaro standartlashtirish qoidalarini joriy qilish;
- xalqaro talablarga javob beruvchi sertifikatlash va tahlil xulosalarini beruvchi laboratoriya va markazlar tarmog‘ini vujudga keltirish va shu kabilar.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy subyektlarning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida tabiiy iqtisodiy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarkibiy o‘zgarishlarni davom ettirish, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini huquqiy tartibga solish va faollashtirish tizimini takomillashtirish hisobiga institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, shuningdek, hududlar aholisi bandligi darajasini va daromadlarini oshirish bo‘yicha vazifalarni izchil amalga oshirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martda “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – Toshkent. // Xalq so‘zi, 2020-yil 29-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. – www.uz.uz.
4. Murodova N.Q. Kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirish yo‘nalishlari.”FAN” 2018-yil.
5. Sobirov A. Iqtisodiyotga to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish omillari//Iqtisodiyot va ta‘lim// 2018. №1 -B.114-119.

6. Salimov B.T. Hududlar yalpi mahsulotining o‘zgarish tendensiyalari tahlili va ustuvor yo‘nalishlari //Iqtisodiyot va ta’lim// 2018. №2 -B.124-129.

7. Муродова Н.К. Кичик бизнес субъектларининг тадбиркорлик фаоллигини оширишнинг асосий йўналишлари. Иқт.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. - Т.: 2008. - 21б.

8. Обидов Р. “Кластер тизимда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ҳамда сотиш харажатлари ҳисобининг хусусиятлари”// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журналі. №3, июнь, 2018 йил

9. www.lex.uz

10. www.norma.uz